

BUXORO VILOYAT BOLALAR KUTUBXONASI
(USLUBIY BO'LIM)

“ASRLARNI ORTDA QOLDIRIGAN ADIB”

O‘zbekning asl farzandi Hamid Olimjon tavalludining 115 yiligiga atab

(Uslubiy qo‘llanma)



Buxoro 2024

72.3

A 91

Uslubiy bo‘lim tomonidan tayyorlandi.

Tuzuvchi: R.Xamroyeva

Muharrir: U.Aripova

“Asrlarni ortda qoldirgan adib” Uslubiy qo‘llanma Hamid Olimjon tavalludining 115 yilligiga bag‘ishlangan ushbu uslubiy qo‘llanma shoir hayoti va ijodi bo‘yicha axborot-kutubxona muassasalarida o‘tkaziladigan bilimdonlar belashuvi, she’rxonlik tanlovi hamda tadbirlar savol-javoblar turkumi tavsiya tarzida berilgan.



ҲАМИД ОЛИМЖОН
Фото — 1929

«Hamid Olimjon nodir iste'dod egasi. Qonida,
ko 'z qorachig'ida, to 'qson ikki tomirida tug'ma
zukkolik, shoirona sajiya, bilgichlik ayon...»

Mirtemir.

Hamid Olimjon hayoti va ijodi haqida

Iste'dodli shoir, dramaturg, olim va jamoat arbobi Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida dunyoga keldi. Narimonov nomidagi boshlang'ich maktabni tugatgach, Samarqand pedagogika bilim yurtida (1923—1926), so'ng Pedakademiyada (1926—1931) o'qidi. Hamid Olimjon talabalik yillaridayoq she'riyatga qiziqdi. Uning asarlari 1926-yildan «Zarafshon» gazetasida chiqqa boshladi. 1927-yilda shoir mazkur ro'znama muharririyatiga ishga o'tdi. Hamid Olimjonning «Ko'klam» nomli ilk she'riy to'plami 1929-yilda bosilib chiqdi. Shundan so'ng «Olov sochlar» (1931), «O'lim yovga» (1932), «Poyga» (1932) kabi she'riy to'plamlari nashr etildi. Davr bilan birga odim tashlagan, o'z ijodida xalqimizning mehnat jabhasidagi qahramonligini tasvirlagan shoir 30-yillarda qator ajoyib lirik she'rilar bilan birga «Zaynab va Omon» dostonini yaratdi. Hamid Olimjon she'riyatining lirik qahramoni — zamon bilan baravar odim otuvchi, vatanparvar, shodlik va baxt taronalarini kuylovchi insondir. O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi (1943) Hamid Olimjon o'zbek adabiyotining dolzarb masalalari bo'yicha qator ilmiy-tanqidiy asarlar yaratdi. Hamid Olimjon A. S. Pushkin, L. N. Tolstoy, M. Gorkiy, V. Mayakovskiy, A. Serafimovich, T. Shevchenko, M. Lermontov, N. Ostrovskiy, A. Korneychuk asarlarini tarjima qildi. O'zbek xalq og'zaki ijodining ajoyib durdonasi «Alpomish» dostoni birinchi marta Hamid Olimjon tomonidan nashrga tayyorlanib (1938), chop etildi. U Alisher Navoiyning 500 yilligini o'tkazish yubiley qo'mitasining a'zosi sifatida ulug' shoir hayoti va ijodi yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. Hamid Olimjon 1939-yildan to umrining oxirigacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qildi. Baxt va shodlik kuychisi Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug'ilgan. Otasi vafotidan so'ng u bobosi Azim bobo va onasi Komila aya qo'lida tarbiyalanadi. Shoir 1923-yilda o'rta maktabni tugatib, Samarqandda pedagogika bilim yurtida, so'ngra Pedagogika akademiyasida o'qiydi. U o'qishni tamomlab, Toshkentga keladi va ko'pgina ro'znomalarda, yozuvchilar uyushmasida, Til va adabiyot institutida faoliyat yuritadi, ikkinchi jahon urushi arafasida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga kotib bo'ladi, 1935-yilda Zulfiyaga uylanadi. Hamid Olimjon 1944-yil 3-iyulda avtomobil halokati tufayli vafot etadi. Uning qabri Birodarlar qabristonidadir. Hamid Olimjonning «Kuychining xayoli» she'rida Fozil Yo'ldosh o'g'lining badiiy olami, baxshining jamiyatdagi, xalq ma'naviy hayotidagi o'rni ko'rsatib berilgan, baxshi aytgan dostonlarda xalq hayoti, tarixi, madaniyati, uduumlari aks etgani tasvirlangan. «Sevgi» she'rida mahbubanint hayot maydonlarida kurashayotgan yor ortidan borish syujetidan foydalanilgan.

Asarlari: «Kimdir» (1926, ilk she'ri), «Ko'klam» (1929, ilk she'riy to'plami), «Tong shabadasi» (1931, hikoyalar to'plami), «Olov sochlar» (1932, she'riy kitob), «Daryo kechasi» (1936), «Sherlar» (1937), «O'lka», «Oygul bilan Baxtiyor» (1937 yil, 16-26 noyabr kunlari yoeilgan), «Baxt» (1940), «Nima bizga Amerika!», «Temir qonun», «Zaynab va Omon» (ikki qizni tarbiyalab voyaga yetkazgan Anor xola obrazi berilgan), «Holbuki tun» (tun qo'ynida borliq haqida o'ylar ifodalangan), «O'zbekiston», «Roksananing ko'z yoshlari» (voqealar Shahrixonda bo'ladi, qahramonlari: Vova, Roksana, Sora), «Semurg», Parizod yoki Bunyod», «O'rik gullaganda» (Hasan Qayg'i degan qozoq oqinining fojiali qismati asosida yozilgan), «G'azal», «Chimyon esdaliklari», «Baxtlar vodiysi (1930-yillar bayroq dor bo'lgan she'r), «Baxt to'g'risida», «Qo'lingga qurol ol», «Jangchi Tursun» (ballada), «Ishonch», «Xat», «Muqanna» (1942), «Ofeliyaning o'limi», «Kuygay», «Jinoyat» dramasi va boshq. Hamid Olimjon «Daryo kechasi» (1936), «O'lka» (1939), «Baxt» (1940) to'plamlari, «Ikki qizning hikoyasi» (1935—1937), «Oygul va Baxtiyor» (1937), «Semurg» (1939) dostonlari bilan o'zbek she'riyatida romantik tasvir tamoyillarining qaror topishiga katta hissa qo'shdi. Ikkinci jahon urushining olovli yillarda uning «Muqanna» nomli she'riy dramasi yaratildiki, u hanuzgacha dramaturgiyamizning go'zal namunalaridan biri bo'lib kelayotir. Uning «Jinoyat» dramasi zamонавиy mavzuda yozilgan. Bu davrda uning bir necha she'riy to'plamlari bilan bir qatorda «Jangchi Tursun», «Roksananing ko'z yoshlari» kabi qator balladalari ham yaratildi. Iste'dodli shoir 1944-yil 3-iyulda avtomobil halokatiga uchrab, vafot etgan.

Hamid Olimjon ijodidan namunalar



O'RIK GULLAGANDA

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar,
Tongda aytди hayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo'lar takror,
Har bahor ham shunday o'tadi,
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli, deyman va qilmayman g‘ash,
Xayolimni gulga o‘rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi, deya so‘rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor, deb esadi yellar.
Etgan kabi go‘yo bir talab,
Baxting bor, deb qushlar chiyillar...

Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so‘ylar roz,
Men yurganda bog‘larga to‘lar
Faqt baxtni maqtagan ovoz:

«Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol,
Bunda tole har narsadan mo‘l,
To o‘lguncha shu o‘lkada qol.

Umrida hech gul ko‘rmay, yig‘lab
O‘tganlarning haqqi ham senda,
Har bahorni yig‘lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda...»

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

XAYOLIMDA BO‘LDING UZUN KUN...

Xayolimda bo‘lding uzun kun,
Seni izlab qirg‘oqqa bordim.
Och to‘lqinlar pishqirgan tunda,
Topib ber, deb oyga yolvordim.

Ishon, bunda seni doimo
Esga solar chiroyli tunlar,
Sho‘x yulduzlar, salqin saharlar,
Esga solar baxtiyor kunlar.

Toleimning oshinosi sen,
Sen sevgimning ko‘kargan bog‘i.
Sening bilan birga iqbolim,
Ishonchimning sen vafo tog‘i.

Meni qurshar salqin bir havo,
Suv ustidan tun quyuladi.
Shunda qancha-qancha gaplarni
Esga solib oy ham to‘ladi.

Kecha jim-jit, yolg‘iz to‘lqinlar
Pishqiradi bilmay tinimni.
Hiylagar oy, sehrgar dilbar,
Solib qo‘yding yodimga kimni?..

* * *

Sevgi desam, faqat sen desam,
Sening bilan yashasa qalbim;
Sen desam-u, butun dunyoning
Sho‘rishiga quloq solsam jim....

Quyun kabi aylanar boshim,
Qarayman-u, ko‘zim tinadi
Va jilvangdan ko‘ngil ko‘zgusi
Parcha-parcha bo‘lib sinadi.

Shu qarashga bormi nihoya,
Bo‘larmanmi maqsadga vosil?
Toparmanmi bir yangi g‘oya,
Bo‘larmikan bir murod hosil?

Topilarmi unda bir chora,
Agar meni qurshasa junun:
Bolib qolsa sirim oshkora,
Atasalar nomimni Majnun?

HOL

Qaydan kelding, fikrimni bo‘lding,
Nega etding meni parishon?
Nega buzzing munis holimni,
O‘ylarimni nechun bemakon?

Ehtiroslar, hislar, yonishlar
O‘lkasini kezardi xayol,
Hokim edi mening ruhimda
Shunday latif ilhomiy bir hol.

Bir kichik tor, bir yoniq pard
Qancha gapni aytib berardi...
Onasidan o‘rganganini
Chumchuq chuqlab qaytib berardi...

Tikkan edim qalb qulog‘ini
Va fikrimga bergen edi jon,
Chivin uchsa kelardi malol,
Shunga edi sadoqat, imon.

Xalal berma, ozroq qo ‘nib tur,
Tamom qilay shu gul suratni,

Qo‘ygil meni, yurakning qoni
Bilan tortay eng so‘nggi xatni.

* * *

Tinimsizdir yolg‘iz shaboda,
Maysalarning sochi silkinar,
Mana, hozir chirqirab turgan
Parrandalar, qushlar ham tinar...

Hamma uxlar va faqat tunni
Mening o‘zim qarshi olurman.
Qarshi olur va tongga qadar
Mening o‘zim uyg‘oq qolurman.

Qulog‘imga sekin shivirlab
Tun uyquni o‘rgatar menga,
Bo‘lganmisan tunda sahroda?
Bo‘lmasa kel, so‘ylayin senga...

OFELIYANING O‘LIMI

1

Orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan
Tarqalar bir ma'yus va g‘amgin sazo.
Qo‘yningda bir quchoq oq va nafis gul,
Lekin ruhing to‘la motam va azo.

2

Foyda yo‘qdir, go‘zal, zolim falakdan
Qancha dod qilsang-u qancha shikoyat,
Qancha yolvorsang, qancha to‘ksang yosh,
Baribir, alamga bo‘lmas nihoyat.

Qancha ma’sum bo‘lsang, qancha vafodor,
Qorday oq bo‘lsang-u, muz qadar toza,
Hech zamon kor etmas, shum falak badkor.
O‘qilur sevgingga qora janoga.

Nega kerak edi shu chiroy, shu o‘t,
Shu yoniq yulduzni ko‘zga yashirmoq?
Nega lablaringdan husn oldi yoqut,
Nega siynang bo‘ldi qor tog‘iday oq?

Husn balosiga kim etdi duchor?
Holbuki, busiz ham qanchalar alam,
Holbuki, busiz ham qizning boshida
So‘ngsiz musibatlar, dunyo-dunyo g‘am.

Holbuki, busiz ham qiyalardi jon,
Busiz ham yetardi falokat, azob,
Faqat go'zal emas, hatto xunuk qiz
Ko'z ochib ko'rardi yolg'iz iztirob.

Orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan
Targalar bir ma'yus va g'amgin sazo.
Qo'yningda bir quchoq oq va nafis gul,
Lekin ruhing to'la motam va azo.

Shundayin latofat, shu oq ko'krakka
Nahot munosibdir shu g'amgin libos.
Onang shuning uchun suyunganmidi —
Nahotki, shu sifat go'zallikna xos.

Javob berib ko'r-chi, nomard tabiat,
Bunchalik go'zalni nechun yaratding?!

O'zing gunohkorsan, osiysan behad,
Nechun yaratding-u o'tlarga otding?

Hali sevishmoqdan shumidir ma'no?
Faqat azob bordir qismatda, nahot?
Nahotki, sevgiga shudir tamanno?
Nahot go'zal uchun faqat, faqat dod!..

3

Hamlet sevar edi, uning qalbini,
Go'yoki ikki cho'g', ikkita otash
Bo'lib yondirardi ko'zing tun-kuni,
U ham qilmas edi bu otashga g'ash.

Hamlet yuragiga berardi hayot
Sening u otashin, gulbarg lablaring,
Jasur xayoliga bo'lardi qanot
Bog'idan bir kezib o'tganing sening.

Faqat netmak kerak,bordir na chora,
Sevguvchi yurakni qurshasa balo?
Butun olam ko'zga esa qorong'i,
Balolarga Hamlet esa mubtalo?

Shubha otashida yonar tafakkur,
Dunyo bir g'amxona, Doniyo* — zindon.
Yo'qdir yuraklarni yoritgali nur,
Zanjirdadir sevgi, qafasdadir jon.

Ishqiy tug'yonlarga qaynab, yurakdan
Chiqolmas bir tovush, bir sazo, bir un,

Etmishdir yerdagi oddiy azoblar
Allaqachonlarkim Hamletni majnun.

Hosil bo‘lmas murod, hech narsa nasib,
Qancha yig‘lasang-u qancha cheksang oh;
Sevguvchi yigitni solmishdir yo‘lga
Tunda ertak aytgan bir mudhish arvo.

Jannat, farishtalar, toza malaklar,
Bir puldir eng ma’sum va eng pok o‘pish,
Do‘zax ichra Hamlet yonib alaklar,
Butun olam ko‘rinadi go‘yo tush.

4

Ko‘ngil gulshanini qopladi xazon,
Yo‘qoldi shunchalik bebahoh sevgi.
Shu bo‘ldi bokira, dunyo ko‘rmagan
U yoqut lablarning qora taqdiri.

Sevgi ko‘klarida uchuvchi lochin
Arshidan yiqildi va ko‘hna dunyo —
Butun armonlarni qul qilgan otash
O‘zi bo‘lib qoldi sevgiga gado.

1936 yil.

**Doniyo — Daniya (mamlakat ma’nosida)*

JANUB KECHASIDA

Sen bo‘lmasang, shu och to‘lqinlar
Ko‘rinmasdi sira ko‘zimga,
Sen bo‘lmasang o‘zimning ko‘nglim
Kirmas edi aytgan so‘zimga.

Sen bo‘lmasang, etmasdi xursand
Suv ustida suzib yurgan oy.
Hamisha sho‘x, doimo baland,
Yulduzdagi jon yoqar chiroy.

Qarashlaring tinchimni olib,
Chertib ketdi qalbim torini,
Shundan keyin sezdim yurakda
Shuncha kuchli o‘tning borini.

Aytib ber-chi, shuncha sevganlar
Bo‘lganmikin mencha baxtiyor?
Aytib ber-chi, qaysi qiz burun
Sevib bo‘lgan umid bilan yor

1936 yil.

HOLBUKI, TUN...

Shag‘irlaydi betinim daryo,
Shag‘irlaydi vahm to‘lgan jar,
Shag‘irlaydi qorong‘i dunyo,
Shag‘irlaydi vodiy, daralar.

Shag‘irlaydi... Bermaydi uyqu,
Xayollarim bo‘lar parishon,
Bir izlanish boshlanar menda
Tushunchamga yana kirar jon.

Holbuki, tun — bunda odatda,
Butun borliq uxlarday sokin,
Butun yer osmonga o’ranib
Olar kebi kunduzidai tin...

Soyga tushdim, ko‘kda chiqdi oy,
Nur yog‘ildi oq bulutlarga.
Nurga to‘ldi dara, to‘ldi soy,
Nur yog‘ildi qorong‘i jarga.

Kezar edim, meni tinmayin
Ta’qib etar bir uzun soya,
Bilmadimkim, bormidir ishi,
YO istarmi aytmoq hikoya.

Ko‘zlarimda yonar uchqunlar,
Zilol suvgaga oy edi sirdosh,
Yaltirardi, doim tovlanar,
Oy nuriga cho‘miluvchi tosh.

Ko‘zni tikdim, parquv bulutlar,
Ko‘char edi zilol va toza.
Lochin kabi samolyot uchar,
Uchar edi solib ovoza.

Tikilgandi ko‘zim qog‘ozga,
Qo‘llarimda yugurar qalam.
Qurshamishdi uni hayajon,
Bir intilish, bir orzu bu dam.

Shag‘irlardi osmon va havo.
Shag‘irlardi butun koinot,
Shag‘irlardi betinim daryo,
Shag‘irlardi daryoda hayot...

Holbuki, tun...

1936 yil.

BO'LSAM

Na bo'lg'ay bir nafas men ham yonog'ing uzra xol bo'lsam,
Labing yaprog'idan tomganki go'yo qatra bol bo'lsam.

Butog'ingga qo'nib bulbul kabi xonish qilib tunlar,
O'pib g'unchangni ochmoqliqqa tong chog'i shamol bo'lsam.

Bo'yingni tarqatib olamni qilsam mastu mustag'riq,
O'zimning san'atimga so'ng o'zim hayratda lol bo'lsam.

Sening birla qolib bu mastu lol olamda men yolg'iz,
O'zimni ham topolmay, mayliga, oxir xayol bo'lsam.

Agar bog'ingda gul bo'lmoq mening-chun noravo bo'lsa —
Ki, ming bor roziman qasringga hattokim duvol bo'lsam.

Boshim hech chiqmasa mayli malomat birla bo'htondin,
Raqiblar rashkiga ko'krak keray, mayli, kamol bo'lsam.

Kezib sahroyu vodiylar yetishsam bir visolingga,
Fido jonimni qildim yo'lingga, mayli, uvol bo'lsam.

1943 yil.

HAR YURAKNING BIR BAHORI BOR

Muhabbat-ul o'zi eski narsa,
Lekin har bir yurak
Oni yong'orta...
Hodi Toqtosh

Har yurakning bir bahori bor,
Har bir qalbga
ishq bo'lar mehmon.
Har yurakda gullar muhabbat,
Bo'ston etar uni begumon.

Lekin Layli boshiga kelgan
Qora kunlar bizga yot bugun;
Bizga yotdir shirin baxtini
Poymol etgan u qop-qora tun.

1936 yil

ENG GULLAGAN YOSHLIK CHOG'IMDA...

Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.

Shunda ko'rdi ko'zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.

Qushlar sayrar jonioqga payvast,
Men sevgining bo‘yi bilan mast.

Kuni bilan dalada qoldim,
Lolazorlar ichra yo‘qoldim.

Quchoq-quchoq gullar terganim
Va keltirib senga bergenim

Kechagiday hamon esimda,
Har soniya, har on esimda.

Shundan beri tilimda oting,
Shundan beri dilimda oting.

Eng gullagan yoshlik chog‘imda,
Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.

1937 yil

Hamid Olimjon tavalludining 115 yilligi bag‘ishlangan tadbir ssenariysi

Hamid Olimjon – el ardog‘idagi shoir

“Bu bo‘ston sahnida gul ko‘p , chaman ko‘p ” — degan edi alloma shoirlarimizdan biri . Haqiqatdan ham bugungi o‘zbek she’riyatini baxt va shodlik kuychisi , serqirra shoir Hamid Olimjon ijodisiz tasavvur etish qiyin .

Hamid Olimjon o‘ziga xos ovozi , betakror she’riyati , o‘lmas asarlari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan beqiyos ijod sohibidir .

Shu kunlarda ulkan shoir Hamid Olimjon haqida juda ajoyib qimmatli fikrlar aytilib , adib tavalludining 115 yilligi respublikamiz bo‘ylab keng nishonlanmoqda .

Yuksak iste’dod egasi Hamid Olimjonning asarlari o‘zbek adabiyotining o‘lmas asarlaridir . Biz shoir ijodini qancha ko‘p mutolaa qilsak shuncha ko‘p zavq-shavq olamiz . Bugun shoirimizning ijod namunalari bo‘yicha 8-sinf o‘quvchilari tadbir tayyorlashgan . Tadbirimizga ishtirok etayotgan ustozlar va she’riyat ixlosmandlariga tashakkurlar aytamiz va so‘zni o‘quvchilarimizga beramiz .

Boshlovchi :

Gul ochilar bahor chog‘ida

Va to‘lishar ona bog‘ida ,

Ona sevmas , farzand topilmas .

Farzand yo‘qdir onani sevmas ,

Farzand guldir , ona bir bo‘ston .

Shuning uchun jahon guliston

Hamid Olimjon hayoti va ijodi bo‘yicha ma’lumotlar beriladi .

Boshlovchi :

Derazamning oldida bir tup

O‘rik oppoq bo‘lib gulladi .

Novdalarni bezab g‘unchalar ,

Tongda aytdi hayot otini

Va shabboda qurg‘ur ilk sahar

Olib ketdi gulning totini

Har bahor ham shu bo‘lar takror ,

Har bahor ham shunday o‘tadi .

Qancha tirishsam ham u beor

Yellar meni tashlab ketadi .

Navbatni ushbu she’r orqali aytildigan qo’shiqqa beramiz :

Boshlovchi :

Rozimasman bir yosh tomsa ko‘zimdan

Rozimasman sal rang ketsa yuzimdan

Yo‘l oshsam-u sal yashashdan adashsam

Rozimasman unda tamom o‘zimdan

Boshlovchi :

Navbatni yana shoir hayoti va faoliyatini ko‘rsatuvchi ma’lumotlarga beramiz .

Boshlovchi :

Hamdam bo‘lding men bilan ,

Har qandayin kunlarda

Yulduz bo'lding charog'on

Eng qorong'u tunlarda

Suhbat qurdik goh shodon

goho hazin unlarda

eng oily baxtim mening

onajonim she'riyat

topgan toj-toatim mening

jonajonim she'riyat

Navbatni shoir she'rlaridan tuzilgan bahrubaytga beramiz

Boshlovchi :

Sevgi desam faqat sen desam ,

Sening bilan yashasa qalbim

Sen desamu butun dunyoning

Sevishiga quloq solsam jim

Hamid Olimjonning "Zaynab va Omon " dostonidan sahna ko'rinishi .

Boshlovchi :

Hamid Olimjonning she'rlari musiqiyligi , o'ynoqiligi , ravonligi bilan ajralib turadi . Uning "O'zbekiston " , "O'rik gullaganda " , "Xolbuki but un " , "Kuygay " , "Sevgi " singari o'nlab she'rlari , "Zaynam va Omon " dostoni , "Oygul bilan Bahtiyor " , "Semurug" ertagi badiiy latofati bilan o'quvchilarining mehrini qozongan .

Shoir mumtoz adabiyotda ham o'z ijodini sinab ko'rib chiroyli g'azallar yoza oldi.

Na bo'lgay bir nafas men ham yanoging uzra xol bo'lsam ,

Labing yaprog'idan tomgan ki go'yo qatra bol bo'lsam

Butogingga qo'nib bulbul kabi xonish qilib tunlar

O‘pib g‘unchangni ochmoqlikka tong chog‘i shamol bo‘lsam
Bo‘yingni tarqatib olamni qilsam masti mustag‘riq
O‘zimning san’atimga so‘ng o‘zim hayratda lol bo‘lsam
Sening birla qolib bu mast-u lol olamda men yolg‘iz
O‘zimni ham topolmay mayliga oxir xayol bo‘lsam
Kezib sahro-yu vodiylar yetishsam bir visolingga
Fido jonomni qildim yo‘lingga , mayli uvol bo‘lsam

Boshlovchi :

Raqs 8 – sinf qizlari ijrosida tomosha qiling

Boshlovchi :

Shuning bilan baxt va shodlik kuychisi Hamid Olimjon tavalludining
115 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirimiz nihoyasiga yetdi .

Hamid Olimjon hayoti va ijodi haqida nimalarni bilsiz?

Savol va javoblar

- 1.Hamid Olimjon qachon va qayerda tug‘ildi?
1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug‘ildi.
- 2.Hamid Olimjon “Oygul bilan Baxtiyor” ertagini kimdan eshitganligini aytadi?

Onasi Komila ayadan

- 3.Hamid Olimjon onasi Komila ayadan ertak va dostonlar eshitgan zavqli tunlarini qaysi asarida esga oladi?
„Tohir va Zuhra“, „Uchar gilam“, „Yoriltosh“
- 4.Hamid Olimjon onasidan eshitgan ertak va dostonlar hamda xalq tarixini o‘rganish jarayonida orttirgan bilimlarini umumlashtirib, qaysi asarini yaratdi?

«Oygul bilan Baxtiyor»

- 5.Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” dostonini yaratish jarayonida orttirgan tajribalari keyinchalik qaysi asarlarida qo‘l keldi?

«Zaynab va Omon», «Semurg‘», «Roksananing

ko‘z yoshlari»

6.Hamid Olimjonning 30-yillarda yaratilgan ertak-dostonlari?

«Zaynab va Omon», «Semurg‘», «Roksananing ko‘z yoshlari»

7.Hamid Olimjonning birinchi she’riy to‘plamining nomi va u qachon bosilib chiqdi?

Ko‘klam» nomli birinchi she’rlar to‘plami

1929-yilda o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi.

8.Hamid Olimjonning dastlabki she’ri qachon, qayerda, qanday gazetada chiqa boshlagan?

Samarqandda chop etiladigan «Zarafshon» gazetasida 1926-yilda bosilgan.

9.Hamid Olimjonning tarixiy mavzuda yozgan she’riy dramasi qaysi?

„Muqanna“

10.Hamid Olimjonning zamonaviy mavzuda yozgan she’riy dramasi qaysi?

„Jinoyat“

11.Hamid Olimjonning asarlari jami necha jildni tashkil qiladi?

10 jild

12.O‘ttiz yoshga etar etmas O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasini boshqarib, o‘ttiz uch yoshida akademik unvonini olgan shoir kim?

Hamid Olimjon

Maktab kutubxonalari o‘tkazilishi mumkin bo‘lagan tadbirlar turkumi.

Kitobxonlar konferensiyasi

1. “Xalq sevgan adib”
2. “O‘zbekiston xalq shoiri”
3. “Vatan madhini kuylagan shoir”

Davra suhbat

1. “Yurakka ko‘milar asl shoirlari”
2. “Quyoshga qarab oqqan suv”
3. “Hamid Olimjon xalq shoiri”

Foydalanilgan adabiyot va oynoma va ro‘znomalar

1. Олимжон, Ҳамид.

Танланган асарлар [Матн]: Шеърлар /Ҳ.Олимжон;муҳаррир С.Азимов.- Тошкент: “ЎзССР” нашриёти, 1951 .-197 б.

2. Олимжон, Ҳамид.

Зайнаб ва Омон [Матн]:Достон /Ҳ.Олимжон; муҳаррир Ш.Одил.-Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1976.-40 б.

3. Олимжон, Ҳамид.

Куйчининг ҳаёли [Матн]: Лирика /Ҳ.Олимжон; муҳаррир И.Гафуров.-Тошкент: “Адабиёт ва санъат” нашриёти, 1979.-160 б.

4. Олимжон, Ҳамид.

Муқаммал асарлар тўплами [Матн]:9том Ҳ.Олимжон; муҳаррир С.Азимов.-Тошкент: “Фан” нашриёти, 1984.-245 б.

5. Олимжон, Ҳамид.

Семурғ [Матн]:Ҳ.Олимжон; муҳаррир С.Жаббор.-Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1984.-32 б.

6. Олимжон, Ҳамид.

Семурғ:Ойгул билан Бахтиёр [Матн]:Ҳ.Олимжон; муҳаррир Ш.Мансуров.-Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1991.-55 б

7. Жумабоев, Мамасоли.

Болалар адабиёти [Матн]:/М.Жумабоев; муҳаррир И.Файзуллаева.-Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1994.-255 б.

8. Суюмов,Абдулла.

Болалар адабиёти [Матн]:Педагогика ва мактабгача тарбия билим юртлари учун қўлланма /А.Суюмов;муҳаррир М.Бахромова.-Тошкент:”Ўқитувчи” нашриёти ,1995.-224 б.

9. Олимжон, Ҳамид.

Водийларни яёв кезганда [Матн]: Шеър ва достонлар/Ҳ.Олимжон; мухаррир Э.Малик.- Ташкент: “Шарқ” нашриёти, 2003.-96 б.

10. Каримов, Наим.

ХХ аср адабиёти манзалари [Матн]:Н.Каримов; мухаррир Ш.Ризаев.-Ташкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2008.-536 б.

11. Каримов, Наим.

Ҳамид Олимжон [Матн]: Маърифий-биографик роман /Н.Каримов; мухаррир В.Файзуллоҳ.-Ташкент: “Шарқ” нашриёти, 2013.-304 б.

12. Ғуломова, Назира.

Она тили ва адабиёт [Матн]:Н.Гуломова; мухаррир Н.Ўролова.-Ташкент: “Шарқ” нашриёти, 2014.-368 б.

13. Олимжон, Ҳамид.

Ойгул билан Бахтиёр[Матн]:эртак-достонлар/Ҳ.Олимжон; мухаррир Ф.Қувонова.-Ташкент: “Янги аср авлоди” нашриёти, 2017.-112 б.

(Vaqtli matbuot nashrlari)

1. Асроров Улугбек. Садоқат ва вафо куйчиларига

эҳтиром . [Ҳамид Олимжон ва Зулфиянинг аҳил ҳаёти тўғрисида]/У.Асроров//Ma’rifat.-2017.-№88.-56.

2. Majid. Vodiyarlarni yayov kezganda ... [12-dekabr

H. Olimjon tavallud topgan kun] /Majid //Yangi O‘zbekiston-2020.-11-dekabr №-150.-4bet.

3. Bekchanova A. Baxtni tarannum etgan ovoz [H. Olimjon hayoti va ijodi] /A. Bekchanova //Ma’rifat-2020.-26 fevral.-№9.-6b.

4. Inoyatova M. Vafo va sadoqat tarannumi [H. Olimjon va Zulfiya hayot yo‘li] /M. Inoyatova //Xalq so‘zi-2022.-№111.-4bet.